

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM/T.02.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

YALG‘ASHEV BURXON FAYZULLAYEVICH

**QOVUSHOQ SUYUQLIK BILAN O‘ZARO TA’SIRLASHUVCHI
QATLAMLI SILINDRIK QOVUSHOQ-ELASTIK QOBIQNING
NOSTATSIONAR TEBRANISHLARI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of abstract doctoral (DSc) dissertation

Yalg‘ashev Burxon Fayzullayevich

Qovushoq suyuqlik bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi qatlamli silindrik qovushoq-elastik qobiqning nostatsionar tebranishlari 3

Ялгашев Бурхон Файзуллаевич

Нестационарные колебания слоистой цилиндрической вязкоупругой оболочки, взаимодействующей с вязкой жидкостью 31

Yalgashev Burkxon Fayzullaevich

Unsteady vibrations of a layered cylindrical viscoelastic shell interacting with a viscous fluid 60

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 64

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM/T.02.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

YALG‘ASHEV BURXON FAYZULLAYEVICH

**QOVUSHOQ SUYUQLIK BILAN O‘ZARO TA’SIRLASHUVCHI
QATLAMLI SILINDRIK QOVUSHOQ-ELASTIK QOBIQNING
NOSTATSIONAR TEBRANISHLARI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № 31.12.2020/B2020.4.FM90 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Xudoynazarov Xayrulla
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Mardonov Batirjan
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Pshenichnov Sergey Gennadiyevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Safarov Ismoil Ibroximovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM/T.02.09 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «02» fevral soat 19:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: (+99866) 239-11-40, 239-12-47, e-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (12/raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-17-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «16» yanvar kuni tarqatildi.
(2024-yil «16» yanvar) dagi «1» raqamli restr bayonnomasi).



R.I.Xalmuradov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

O'.A.Nishonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
fizika-matematika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

K.I.Ismayilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turli xil muhandislik ob'ektlarining asosiy yuk ko'taruvchi elementlarini tashkil qiluvchi qatlamli kompozit konstruksiyalarning tejamkorlik samaradorligini aniqlash asosida materiallar sarfini kamaytirish darajasini baholash hamda undan oqilona foydalanish muammolariga juda katta ahamiyat berilmoqda. Zamonaviy muhandislik amaliyotida bunday tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj, qurilish va mashinasozlik sohasidagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib, pirovardida konstruksiya va mashinalarning og'irligini kamaytirish, ishonchliligi hamda mustahkamligini oshirish, shuningdek ularga sarflanadigan material va xarajatlarni kamaytirishni ta'minlovchi tadqiqotlarga bo'lgan talab darajasi tobora ortib bormoqda. Shu sababli, dunyoning texnik jihatdan rivojlangan mamlakatlarida, muhandislik inshootlarining mustahkamligini oshirish muammolarini hal qilish, ularni zamonaviy ekstremal sharoitlarga mos ekspluatatsiya qilish uchun zarur bo'lgan keng diapazondagi dinamik yuklarning ta'siri ostidagi qatlamli kompozit elementlarning harakatini o'rganish uchun nazariy va eksperimental tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda qatlamli kompozit materiallardan, xususan, gaz-suyuq muhitlar bilan o'zaro ta'sirlashuvchi quvurlar va ulardan tayyorlangan muhandislik mahsulotlari amaliyotda tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ushbu yo'nalishda yuqorida sanab o'tilgan muammolarning yangi ilmiy-texnik yechimlarini izlab topishga qaratilgan yangi, noan'anaviy materiallarni yaratish va ulardan uchish apparatlari, mashinalar va konstruksiyalar elementlarini yasash va amaliyotga joriy etish borasida jadal ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Olimlarning tadqiqotlari, ayniqsa yuqori mustahkamlikka ega yangi kompozit materiallar yaratish va ular asosida yangi yengil va mustahkam konstruksiyalar ishlab chiqarishga, ularning amaliyot uchun muhim xususiyatlarini oldindan yaratishga qaratilgan. Shuning uchun turli tebranish jarayonlarining matematik modellarini yaratishga, kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqroq topishga, shuningdek, o'zaro ta'sirni hisobga olgan holda kompozit materiallardan yasalgan turli muhandislik inshootlarining konstruktiv elementlarini raqamli tadqiq qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda texnika va qurilishning turli sohalarida har xil tabiatli dinamik yuklar ta'siri ostidagi yuk tashuvchi va ko'taruvchi muhandislik qurilmalari deformatsiyasini hisoblash matematik modelini yaratish va amaliyotga keng tadbqiq etish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Keyingi yillarda mamlakatni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha, jumladan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish-ning Harakatlar strategiyasida, xususan, "... ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish..., ... tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish ..." ¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, qurilmalarning yuk ko'tarish qobiliyatlarini, jumladan uch qatlamli qovushoq-elastik plastinkalar yordamida

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

amalga oshirish maqsadida qurilmalar elementlarining deformatsiyalanish jarayonlarini ifodalovchi takomillashtirilgan matematik modellarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 9-avgustdagi PQ-3190-son “O‘zbekiston Respublikasi hududi va aholisining seysmik xavfsizligi, seysmik chidamli qurilish va seysmologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini to‘g‘risida”gi, 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 2-fevraldagi PQ-3502-son “2018-2022 yillarda aholi punktlarini bosh rejalar bilan ta‘minlash, loyiha tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik sohasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyat sohasiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning PFI- IV “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Dinamika masalalarini o‘rganishning turli usullari va deformatsiyalanuvchi qattiq jismlarning uzluksiz muhit bilan o‘zaro ta‘siriga oid turli xil tadqiqot usullari, shuningdek, samarali matematik modellarni yaratishning fundamental nazariy va eksperimental muammolari I.G.Filippov va V.G.Cheban, I. Lottati, I. Elishakoff, X. Yajuan, V. Abassi, F. Pellicano, P. B. Gonsalves, A.S. Sayyod, Y.M. Ghugal, J.N. Reddi, S.G.Pshenichnov, S.V.Ivanov, L.I. Mogilevich, B.A.Xudayarov, V.M.Dubrovin, T.A. Butina, Q. Sulstonov, M. Mirsaidov, R. A. Abdikarimov, A. B. Ahmedov va boshqa olimlarning ishlarida ko‘rilgan.

Tizimlardagi nostatsionar tebranishlarining aniqlashtirilgan nazariyalarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlarga qiziqish kuchaymoqda. Chiziqli nazariya masalalarini aniq uch o‘lchamli shakllantirish asosida muhitni, ko‘p qatlamlilikni hamda ishqalanish kuchlarini hisobga olgan holda elastik (G.I.Petrashen) va qovushoq-elastik (I.G.Filippov) plastinkalar va doiraviy sterjnlarning bo‘ylama va ko‘ndalang tebranishlarining aniqlashtirilgan nazariyalari ishlab chiqilgan. X.Xudoynazarov tomonidan qovushoq elastik silindrik qobiqning nostatsionar tebranishlari nazariyasini ishlab chiqildi va bunqa mavjud tebranish nazariyalaridan farqli ravishda birinchi marta silindrik qobiq nuqtalarining tebranishlarini baholovchi, asosiy sirt sifatida "oralik" sirt kiritildi va uning radiusi qobiqning ichki va tashqi radiuslari orqali ifodalanishi mumkin.

Bunda olingan tebranish tenglamalari S.P.Timoschenko tipidagi klassik va aniqlashtirilgan nazariyalardan farqli o‘laroq avtomatik ravishda aylanish inertsiyasini va ko‘ndalang siljish deformatsiyasini hisobga oladi. Bundan tashqari, an’anaviy usullardan voz kechgan holda silindrik qatlamning o‘rta sirti asosiy sirt

sifatida qabul qilinishi deformatsiyalanuvchi muhit bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi doiraviy silindrik qatlamlar, qobiqlar va sterjnlarning dinamik masalalarida kinematik va dinamik shartlarni mavjud nazariyalarga nisbatan aniqroq shakllantirish imkonini beradi (J.N.Abdirazzoqov, D.Sh.Xoliqov).

Bu usulning yana bir afzalligi shundaki, tebranish tenglamalari bilan bir qatorda ko‘chishlar va kuchlanish maydonlari uchun analitik formulalarni olish mumkin, afsuski, S.P.Timoshenko tipidagi klassik yoki aniqlashtirilgan nazariya hollarida buni to‘liq amalga oshirib bo‘lmaydi. Mazkur yo‘nalishdagi ishlar (A.Abdirashidov, F.A.Amirqulova, Sh.M.Burkutboev) qovushoq siqiluvchi suyuqlik bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi silindrik qovushoq elastik qobiq uchun taklif qilgan usulni ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Muhandislik amaliyotida qo‘llaniladigan, plastinka, sterjen kabi konstruksiya elementlarining uzluksiz muhit bilan, xususiyl hollarda ideal va qovushoq suyuqliklar bilan dinamik o‘zaro ta’sirining turli masalalari, bir qancha olimlarning ko‘plab maqolalari va umumiy ishlarida keltirilgan (X.Yajuan, S.Yunxuy, P.Panpan, Y.L.Chjan, J.M.Ris). Bu masalalar orasida turli xil suyuqliklarning qattiq jismlar bilan o‘zaro ta’siri eng to‘liq o‘rganilgan. Tadqiqotlar tahlili va ushbu muammoga bag‘ishlangan asarlarning sharhi maqolalar va monografiyalarda (K.J. Bathe, S. Lakovlev, X. Huang) keltirilgan.

Muhandislik amaliyotidagi masalalar uchun, hali yetarlicha o‘rganilmagan, qovushoq suyuqlik holatida yuqqa plitalar va qobiqlarning gidroelastiklik masalalariga qiziqish katta. Sferik va silindrik qobiqlarning qovushoq suyuqlik ta’siridagi nostatsionar deformatsiyasining maxsus holatlari bo‘yicha ba’zi natijalar K.N. Karagiozis, M.P. Paidoussis, M. Amabili, A. G. Shoh, T. Mahmud, M. N. Naim, S.H. Arshad, Ki Twinlarning ishlarida keltirilgan.. P.S.Kovalchuk, L.A.Kruk va S.N. Kukudjonova asarlarida suyuqlik bilan to‘ldirilgan silindrik qobiqlarning majburiy tebranishlari, shuningdek silindrik qobiqlarga yaqin bo‘lgan aylanma qobiqlarining tebranishlari va dinamik turg‘unligi, normal bosim va meridional kuchlar ta’sirida ko‘rib chiqilgan.

Bu yo‘nalishdagi fundamental natijalar R.P.Darmond, V.T.Ronlo va A.N.Guzlarga tegishli. Bu ishlar dissertatsiyada ko‘rsatilgan masalalar bilan bevosita bog‘liqdir. Hozirgi vaqtda aerogidroelastiklikning ko‘plab masalalari (statsionar masalalar uchun, statsionar va harakatlanuvchi suyuqliklar va gazlar uchun, chiziqli hamda nochiziqli masalalar va boshqalar) o‘rganilganligini ta’kidlab o‘tamiz. Bu tadqiqotlar natijalari ko‘p sonli nashrlarda o‘z aksini topgan (F. Alijani, M. Amabili). Bu ishlarda elastik jismlarning harakatini tavsiflashda Kirxgoff-Lyave, S.P.Timoshenko va boshqalarning gipotezalaridan foydalangan holda tuzilgan ikki o‘lchovli amaliy nazariyalar qabul qilingan va ba’zi hollarda dastlabki kuchlanishlarni hisobga olgan (V.D.Kubenko, A.V.Netrebko, S. G. Pshenichnov, A. N. Guz va boshqalar).

Ko‘plab nashrlarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarni sarhisob qilsak, qovushoq siqilgan suyuqlikni o‘z ichiga olgan qatlamli elastik va qovushoq elastik silindrik qobiqlar tebranishlarining matematik nazariyasi mavjud emasligini aytishimiz mumkin. Shuning uchun bu sohada yangi nazariyalar va hisoblash usullarini ishlab chiqish zarur. Ushbu dissertatsiya ishida yuqorida sanab o‘tilgan, hal qilinmagan

muammolarning bir qismi ya'ni, uch qatlamli silindrik qatlamlar, qobiqlar va sterjenlarni ularning ichidagi qovushoq siqiluvchi suyuqlik ta'sirini hisobga olgan holda hisoblashning yangi algoritmlari va usullarini ishlab chiqish orqali o'z yechimini topgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qobiqlarning tebranishlari nazariyalarini turli xil gipoteza va soddalashtirishlarni qo'llab ishlab chiqishda ko'plab xorijiy olimlar katta hissa qo'shishgan. Jumladan H.Kirxgoff, A.Lyave, S.P.Timoshenko, V.V.Novojilov, R.M.Finkelshteyn, X.M.Mushtari, V.M.Darevskiy, E.I.Grigoliuk, S.A.Ambartsumyan, Yu.I.Yuan, U.K.Nigul, G.Germann, I.Mirskiy, V.Z.Vlasov, I.G.Filippov, J. Kudlička, J.O.Kim, H.Y.Chun, Xuebin Li² va boshqalar.

Konstruktiv qatlamli elementlar, xususan qatlamli va bir jinsli qobiq va plastinkalar dinamikasi hisobi bo'yicha Ularni ishlab chiqish hamda takomillashtirish bo'yicha ko'plab o'zbek olimlari samarali tadqiqotlar olib borishgan va borishmoqda. Ular qatoriga akademiklar T.Shirinqulov, T.Rashidov, M.Mirsaidov, professorlar K.Sultanov, X.Xudoynazarov, I.Safarov, M.Usarov, A.Axmedov, B.Mardonov, T.Mavlonov, R.Abdukarimov, K.Ismoilov, R.Abirov, I.Mirzayev va boshqalarni kiritish mumkin. Ushbu olimlarimiz va ularning ilmiy maktablari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijasida qobiqli konstruksiyalar samaradorligini oshirish va xalq xo'jaligi tarmoqlarida qo'llash bo'yicha vujudga keluvchi muammolarni hal qilishda salmoqli natijalarga erishilmoqda.

Shu bilan birga, shunday fakti ham tan olish kerakki, doiraviy silindrik bir jinsli, ko'p qatlamli va kompozit qobiqlarning tashqi dinamik yuklar, materialning qovushoq-elastiklik, plastiklik, anizotropiya va boshqa fizik-mexanik xususiyatlarini hamda ta'sirlashuvchi muhitlarning, xususan uchki va tashqi tinch yoki oquvchi qovushoq suyuqliklar ta'sirini hisobga oluvchi tebranish nazariyalarini yaxshi o'rganish, ularni rivojlantirish va aniqlashtirish hamda yangi matematik modellarini yaratish ishlari yetarli darajada emas.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining "Deformatsiyalanuvchi muhit bilan o'zaro ta'sirlashuvchi diskret-uzluksiz tizimlarning turg'unligi va tebranishlarini tadqiq qilish" (2010-2025) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejalariga muvofiq.

Tadqiqotning maqsadi dinamik yuklar ta'siridagi uch qatlamli silindrik qovushoq elastik qobiqlarning nostatsionar, o'qqa nisbatan simmetrik tebranishlarini dinamik hisoblashning matematik modellarini ishlab chiqish; uch qatlamli qobiqlarning ixtiyoriy kesimidagi nuqtalarida ko'chish va kuchlanish

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: *F.Pellicano* Vibrations of circular cylindrical shells: theory and ex-periments // Journal of Sound and Vibration – 2007. 303. *A.S. Sayyad, Y.M. Ghugal* On the free vibration analysis of laminated composite and sandwich plates: A review of recent literature with some numerical results // Composite Structures 2015 129. *F. Alijani, M. Amabili.* Non-linear vibrations of shells: A literature review from 2003 to 2013 // International Journal of Non-Linear Me-chanics, Elsevier, 2014, 26. *H.T. Banks, S. Hu, and Zackary R. Ken.* A Brief Review of Elastic-ity and Viscoelasticity for Solids // Advances in Applied Mathematics and Mechanics Vol. 3, No.1 va boshqalar.

maydonlarini aniqlash algoritmlarini yaratish; ishlab chiqilgan modellarni uch qatlamli kompozit va bir jinsli silindrik qobiqlar va sterjlar tebranishining amaliy masalalarini yechish uchun qo‘llashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

qovushoq siqiluvchan suyuqlik bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi doiraviy silindrik uch qatlamli qovushoq elastik qobiqning o‘qqa nisbatan simmetrik tebranishlari yangi matematik modelini yaratishdan iborat bo‘lib, u umumiy va aniqlashtirilgan tebranish tenglamalarini keltirib chiqarishni hamda qobiq tebranishlarining amaliy masalalarini qo‘yishni o‘z ichiga oladi;

doiraviy silindrik uch qatlamli qovushoq elastik qobiqning ixtiyoriy ko‘ndalang kesimining istalgan nuqtasida kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini uning o‘qqa nisbatan simmetrik tebranishlari masalalari yecimlari orqali izlanuvchi funksiyalar maydonida bir qiymatli aniqlash imkonini beradigan algoritmi ishlab chiqish;

qovushoq suyuqlik bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi, turli tashqi dinamik yuklar, xususiyl holda, zarbali va seysmik yuklar ta’siridagi doiraviy silindrik uch qatlamli qovushoq elastik qobiqlarni dinamik hisoblashning yangi usulini yaratish;

taklif etilayotgan matematik model va ichida suyuqlik bo‘lgan uch qatlamli kompozit va bir jinsli silindrik qobiqlar tebranishining amaliy masalalari yechimlarini hisoblash usuli va qurilish, texnika va boshqa sohalarga oid dolzarb masalalarni yechishga qaratilgan.

Tadqiqot ob’ekti - uch qatlamli silindrik qovushoq elastik qobiqan iborat.

Tadqiqot predmeti –uch qatlamli silindrik qovushoq elastik va elastik qobiqlarning nostatsionar buralma va bo‘ylama-radial tebranishlari va tebranish jarayonlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni olib borish jarayonida matematik va sonli modellashtirish usullari, tutash muhitlar mexanikasining fundamental balans qonunlari va fenomenologik qonunlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tashqi dinamik yuklar ta’siri ostidagi uch qatlamli doiraviy silindrik qovushoq- elastik qobiq buralma va bo‘ylama-radial tebranishlari dinamik hisobining, klassik va S.P.Timoshenko tipidagi modellarni o‘z ichiga olgan, yangi matematik modellari ishlab chiqilgan;

uch qatlamli qovushoq-elastik silindrik qobiqning ishlab chiqilgan nostatsionar tebranishlari tenglamalaridan, xususiyl hollarda, ikki qatlamli qobiqlar, uch qatlamli va bir jinsli sterjenlar tebranishlari tenglamalari kelib chiqishi isbotlangan;

doiraviy silindrik uch qatlamli qovushoq-elastik qobiqning nostatsionar buralma va bo‘ylama-radial tebranishlarida qatlamlar ixtiyoriy kesimlari nuqtalaridagi kuchlangan-deformatsiyalangan holatini hisoblash algoritmi yaratilgan;

dinamik yuklar ta’siridagi doiraviy silindrik uch qatlamli qovushoq-elastik qobiqning nostatsionar buralma va bo‘ylama-radial tebranishlari haqidagi amaliy ahamiyatli masalalar shakllantirilgan va mos hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

ichidan o'zgarimas tezlik bilan qovushoq suyuqlik oqib o'tuvchi doiraviy silindrik uch qatlamli qobiqning bo'ylama tebranishlari tadqiq etilgan va o'rta qatlam qalinligining, materialining hamda qatlamlar joylashishining uch qatlamli qobiq doiraviy chastotasiga ta'sirini baholash metodikasi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tashqi dinamik yuklar ta'siri ostidagi uch qatlamli doiraviy silindrik qovushoq- elastik qobiq buralma va bo'ylama-radial tebranishlari dinamik hisobining yangi matematik modellari;

nostatsionar buralma va bo'ylama-radial tebranishlari jarayonlaridagi uch qatlamli silindrik qovushoq-elastik va elastik qobiqlar kesimlaridagi ko'chish va kuchlanishlarning fazoviy va vaqt koordinatalariga bog'liq qonuniyatlarini aniq-lash bo'yicha olingan natijalar;

dinamik yuklar ta'siridagi doiraviy silindrik uch qatlamli qovushoq-elastik qobiqning nostatsionar buralma va bo'ylama-radial tebranishlarida qatlamlar ixtiyoriy nuqtalarining kuchlangan-deformatsiyalangan holatini xarakterlovchi parametrlarning o'zgarish qonuniyatlari;

doiraviy silindrik uch qatlamli elastik va qovushoq-elastik qobiqlarning garmonik buralma va bo'ylama-radial tebranishlari masalalarini to'liq tarqalishi usuli bilan amaliy matematik paketlar yordamida sonli hisoblashga imkon beruvchi hisoblash algoritmi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Furrye-Laplas integral almashrinishlarini qo'llash, darajali qatorlarga yoyish usullari va matematik fizikaning boshqa usullaridan foydalanib tebranish tenglamalarini chiqarishda qovushoq elastiklik nazariyasining tegishli masalalarini aniq echish usulidan foydalanish, shuningdek, boshqa mualliflarning natijalari bilan, xususiyl holda, bir jinsli doiraviy silindrik qobiq uchun olingan natijalar bilan, tizimli tekshirish orqali tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kompozit uch qatlamli silindrik qovushoq elastik qobiqlarning nostatsionar, buralma va bo'ylama-radial tebranishlari uchun tenglamalarni chiqarishning yangi usulini yaratish va takomillashtirish, tashqi dinamik, xususan, impulsli va seysmik yuklar ta'sirida bo'lgan kompozit qatlamli qobiqlarning tebranishlariga oid yangi amaliy masalalarni yechish hamda qobiqlar va boshqa tuzilmalarning konstruktiv elementlari, xususan, konussimon qobiqlar va cterjnlr, elliptik kesmadagi qobiq konstruktsiyalari, plitalar va boshqalar uchun ishlab chiqilgan usullarni umumlashtirish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tashqi dinamik yuklarni hisobga olgan holda uch qatlamli kompozit qobiqlarning buralma va bo'ylama-radial tebranishlarida kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati parametrlarini aniqlashning amaliy masalalarini yechish uchun analitik-sonli algoritmlarni ishlab chiqish; materialining reologik, anizotrop va boshqa xossalarini hisobga olgan holda, matematik fizikaning shunga o'xshash masalalari uchun umumiy xarakterni ifodalaydigan, olingan natijalarni umumlashtirish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uch qatlamli kompozit qobiqlarning nostatsionar tebranishlarini sonli tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan matematik modellar, hisoblash usullari va algoritmlar asosida quyidagilar amalga oshirildi:

Qovushoq siqiluvchi suyuqlikni o'z ichiga olgan kompozit uch qatlamli silindrik qobiq (quvur) nuqtalarida tashqi impulsli yuk tasirida yuzaga keladigan normal kuchlanishning kritik qiymatlarini hisoblash "YANGIOBOD BUNYODKOR QURILISH" MChJda loyihalashtirilgan quvurli uzatgichlarning ixtiyoriy kesimidagi nuqtalarida chidamlilik chegarasini aniqlashda amaliyotga joriy qilindi. Olingan natijalar (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 08-06/8138-sonli guvohnomasi) xarajatlarni normaga nisbatan 7 – 8 % ga kamaytirish imkonini bergan;

harakatlanuvchi qisqa muddatli yuklarning ta'siri natijasida uch qatlamli silindrik qobiq nuqtalarida paydo bo'ladigan radial kuchlanishlarning eng yuqori qiymatlarini aniqlash usuli "QISHLOQQURILISHLOYIHA" MchJ bosh loyiha qidiruv institutida joriy qilinganda ruxsat etilgan yuklarning bir jinsli silindrik qobiqlar uchun ruxsat etilgan yuklardan past ekanligini aniqlashga imkon berdi. Loyihalash jarayonida ushbu omilni hisobga olish (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 08-06/8138-sonli guvohnomasi) materiallar sarfini 9 % gacha tejash imkonini bergan;

"QISHLOQQURILISHLOYIHA" MchJ bosh loyiha qidiruv institutida qobiq materialining qatlamli kompozitlik xususiyatini hisobga olgan holda aniq hisob-kitobdan fqo'llanildi, bu zo'riqishlar va ko'cishlarni klassik nazariyaga ko'ra hisoblash real holatdan yuqori bo'lgan natijalar berishini aniqlashga imkon berdi. Ushbu faktni hisobga olish (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2023 yil 18 avgustdagi 08-06/8138-sonli guvohnomasi) materiallar sarfi va ishlab chiqarish xarajatlarini 7 – 9 % gacha tejash imkonini bergan;

kompozit uch qatlamli silindrik qobiqning ixtiyoriy kesimi nuqtalarining maksimal radial ko'chishini topish yo'li bilan konstruksiyning buzilishi mumkin bo'lgan nuqtalari va ularning qiymatlarini aniqlash "YANGIOBOD BUNYODKOR QURILISH" MChJda amaliyotga joriy qilindi. Bunday nuqtalarni halqali kamarlar yordamida mustahkamlash O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 08-06/8138-sonli guvohnomasi) qobiqning yuk ko'tarish qobiliyatini 7% gacha ko'paytirish imkonini bergan;

ko'ndalang kesim bo'yicha qatlamlilikni hisobga olgan holda, statik va dinamik yuklarning birgalikdagi ta'siri ostidagi silindrik uch qatlamli qobiqning kesimlarida dinamik deformatsiyani hisoblashlar "AZIZ PROEKT PLAN" MChJ da loyihalash ishlarida amaliyotga joriy qilindi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, olingan natijalar yengilroq va tejankor materiallardan foydalanishga imkon beradi (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 08-06/8138-sonli guvohnomasi) va shunga mos ravishda konstruksiyaning og'irligini 8% gacha kamaytirgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 1 monografiya va 19 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarini (DSc) himoya qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan ilmiy jurnallar, respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiyalar materiallarida, shu jumladan, SCOPUS ma'lumotlar bazasida indekslangan nashrlarda 8 ta (shundan 1 tasi WOS ma'lumotlar bazasida) va respublika ilmiy nashrlarida 9 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 196 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammolarning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalarni, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan. Har bir bobning qisqacha mazmuni keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi "Silindrik qatlam va qobiqlarning uzluksiz muhit bilan o'zaro nostatsionar ta'siri. Asosiy tenglamalar va ularni yechish usullari" deb nomlanib, elastik va qovushoq elastik jismlarning hamda silindrik qatlamlar, qobiqlar va sterjnlr kabi konstruksiya elementlarining deformatsiyalanuvchi muhit bilan, xususiy holda ideal va qovushoq suyuqliklar bilan o'zaro nostatsionar ta'siri muammolarini o'rganishga bag'ishlangan adabiyot manbalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Uch qatlamli silindrik qovushoq elastik qobiq va sterjnlarning nostatsionar tebranishlari, shuningdek, ularning qovushoq siqiluvchi suyuqlik bilan o'zaro nostatsionar ta'siri bo'yicha birqancha masalalar ham shakllantirilgan. Tadqiqot usuli tanlangan va dissertatsiya ishi doirasida amalga oshiriladigan keyingi tadqiqotlarning umumiy dasturi ishlab chiqilgan. Qovushoq elastik uch qatlamli qobiqlar va sterjnlr, shuningdek, qovushoq siqiluvchi suyuqliklarga nisbatan qo'llaniladigan gidroviskoelastiklikning asosiy tenglamalari va munosabatlari keltirilgan.

Bobning birinchi paragrafida konstruksiyaviy elementlarning deformatsiyalanuvchi muhit bilan nostatsionar ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Tabiatshunoslikning zamonaviy rivojlanishida, shuningdek, uning turli sohalari, muhandislik amaliyoti, shuningdek, yangi texnologiya va uskunalar tadqiqotchilar oldiga doimiy ravishda yangi nazariy va amaliy mexanikada kontaktli ta'sir masalalarni qo'yayotgani ta'kidlangan.

Masalalarning bu sinfiga materiallarning turli fizik-mexanik xossalari va ta'sirlashuvchi uzluksiz muhit ta'sirini hisobga olgan holda, ulardan yasalgan materiallar va konstruksiyalarning nostatsionar harakatlarini tavsiflovchi modellarni yaratish va takomillashtirish vazifalari ham kiradi. Bundan tashqari, masalalarning ushbu sinfiga yaratilgan va takomillashtirilgan modellar doirasida materiallarning dinamik deformatsiyasi va mustahkamlik xususiyatlarini o'rganish usullarini ishlab chiqish, shuningdek, atrofdagi yoki mavjud bo'lgan muhit bilan aloqa o'zaro ta'siri va dinamik tashqi yuklarning ta'siri ostida ishlashga yo'naltirish kiradi.


Ko'p sonli nashrlar ushbu masalalarni hal qilishga va deformatsiyalanuvchi qattiq jismlar mexanikasi ushbu klassik masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Dinamik masalalarini o'rganishning turli metodlari va deformatsiyalanuvchi qattiq jismlarning tutash muhit bilan o'zaro ta'siriga oid ba'zi boshqa masalalar, shuningdek fundamental nazariy va eksperimental masalalarning samarali matematik modellari I.G.Filippov va V.G.Cheban, I.Lottati, I.Elishakoff, H.Yajuan, W.Abassi va boshqalar, F.Pellicano, P.B.Gonsalves, A.S.Sayyad, Y.M.Ghugal, J.N.Reddi, S.V.Ivanova, L.I.Mogilevich, B.A.Xudayarov, V.M.Dubrovin, T.A.Butina, X.Xudoynazarov va uning shogirdlari, K.Sultonov, M.Mirsaidov, R.A.Abdikarimov, A.B.Axmedov va boshqalar tamonidan yaratilgan.

Qovushoq suyuqlik holatida yupqa plastinkalar va qobiqlar uchun gidroelastiklik masalalari katta qiziqish uyg'otadi, ular hali yetarlicha o'rganilmagan. Sferik va silindrik qobiqlarning qovushoq suyuqlikdagi turg'unligi deformatsiyasining maxsus holatlari bo'yicha ba'zi natijalar K.N.Karagiozis, M.P.Paidoussis, M.Amabili, A.G.Shah, T.Mahmood, M.N.Naeem, S.H.Arshad, Kyi asarlarida keltirilgan. To'liq suyuqlik bilan to'ldirilgan silindrik qobiqlarning majburiy tebranishlari, shuningdek silindrik qobiqlarga yaqin, normal bosim va meridional kuchlar ta'sirida aylanuvchi qobiqlarning tebranishlari va dinamik turg'unligi P.S.Kovalchuk, L.A.Kruk va S.N.Kukudjonovalarning ishlarida ko'rib chiqilgan. Bu yo'nalishdagi fundamental natijalar R.P.Darmond va V.T.Ronlo va A.N.Guzlarga tegishli. Bu ishlar dissertatsiyada ko'rsatilgan masalalar bilan bevosita bog'liqdir. Ta'kidlanishicha, hozirgi vaqtda aerogidroelastiklikning ko'plab masalalari o'rganilgan (statsionar masalalar uchun, statsionar va harakatlanuvchi suyuqliklar va gazlar uchun, chiziqli va nochiziqli shakllarda va boshqalar). Ushbu tadqiqotlar natijalari ko'plab nashrlarda aks ettirilgan. Bu ishlarda elastik jismlarning harakatini tavsiflashda ikki o'lchovli amaliy nazariyalar qabul qilingan, ular Kirxgoff-Love, S.P.Timoshenko va boshqalarning gipotezalaridan foydalangan holda, ayrim hollarda esa dastlabki kuchlanishlarni hisobga olgan holda tuzilgan.

Ko'pgina adabiy manbalarni o'rganish elastik doiraviy silindrik qatlam va qobiqlarning tebranishlari nazariyasi to'liq o'rganilmagan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Bundan tashqari, agar qobiq yoki qatlam qovushoq, siqilmaydigan va siqiluvchan suyuqlik bilan nostatsionar ta'sirlashuv holatida bo'lsa, silindrik qatlam va qobiqlarning tebranishlarining taqribiy nazariyalari yer osti va suv osti inshootlari va kommunikatsiyalari uchun amalda mavjud emas, garchi ular hisoblash uchun bevosita ahamiyatga ega bo'lsa ham.

Ikkinchi paragrafda uch qatlamli silindrik qobiq va qovushoq siqiluvchan

suyuqlik harakatining asosiy tenglamalari keltirilgan. Silindrik koordinatalar sistemasida qovushoq-elastik materialdan yasalgan, qalinligi bo'yicha bir jinsli bo'lmagan uch qatlamli doiraviy silindrik qobiq qaralgan. Qobiqning dinamik yuklar ta'sirida ishlashi nuqtai nazaridan qobiqning ratsional konstruksiyasi bundan keyin yuk ko'taruvchi qatlamlar deb ataladigan ikki qatlam shaklida qattiq materialning asosiy yupqa devor yoki uchinchi qatlam yordamida ma'lum masofada ushlab turiladi deb hisoblanadi. Uchinchi qatlam bundan buyon to'ldiruvchi deb ataladi. To'ldiruvchi qatlam yuk ko'taruvchi qatlamlarni o'z qalinligiga teng masofada ushlab turadi va birgalikda ishlaydi.



1-rasm. Uch qatlamli silindrik qobiqning ko'ndalang kesimi

Koordinata sistemasining Oz o'qi qobiqning simmetriya o'qi bo'ylab yo'naltirilgan va qatlamlar 1a-rasmda ko'rsatilgandek raqamlangan: a va b - qobiqning ichki va tashqi radiuslari, r_1 va r_2 - o'rta (to'ldiruvchi) qatlamning ichki va tashqi radiuslari. Tebranish tenglamalarini olishda silindrik qobiq ham, yuk ko'taruvchi qatlamlar ham, to'ldiruvchi ham qovushoqlik matematik nazariyasiga qat'iy rioya qiladi va chiziqli formulada uning uch o'lchovli tenglamalari bilan aniq tasvirlanadi deb qaraladi. Doiraviy silindrik uch qatlamli qobiq qatlamlari nuqtalaridagi kuchlanish va deformatsiya komponentlari o'rtasidagi bog'lanishlar quyidagi shaklda berilgan deb hisoblanadi.

$$\begin{aligned} \sigma_{ii}^{(m)}(r, \theta, z, t) &= R_{\lambda m}(\varepsilon_{ii}^{(m)}) + 2R_{\mu m}(\varepsilon_{ii}^{(m)}); \\ \tau_{ij}^{(m)}(r, \theta, z, t) &= 2R_{\mu m}(\gamma_{ij}^{(m)}); \quad (i \neq j); \quad (i, j = r, \theta, z), \end{aligned} \quad (1)$$

bu yerda $\sigma_{ii}^{(m)}$ - va $\tau_{ij}^{(m)}$ - kuchlanish tenzorining normal va urinma komponentalari ($m=0,1,2$); $\varepsilon_{ii}^{(m)}$ - va $\gamma_{ij}^{(m)}$ - deformatsiya tenzorining normal va burchak komponentalari, $\varepsilon^{(m)}$ - hajmiy deformatsiya; $R_{\lambda m}$, $R_{\mu m}$ - qovushoq-elastik operatorlar quyidagiga teng.

$$R_{(\lambda, \mu)m}(\zeta) = (\lambda_m, \mu_m) \left[\zeta(t) - \int_0^t K_{(\lambda, \mu)m}(t - \tau) \zeta(\tau) d\tau \right], \quad (2)$$

λ_m , μ_m - qatlam materiali uchun Lamé koeffitsiyenti, $K_{\lambda m}(\tau)$ va $K_{\mu m}(\tau)$ - integral yadro operatori. $R_{\lambda m}$ va $R_{\mu m}$ teskarilanuvchan qovushoq-elastik operatorlari deb faraz qilinadi, $K_{\lambda m}(\tau)$ va $K_{\mu m}(\tau)$ lar ularning ixtiyoriy yadrolari.

(r, θ, z) silindrik koordinatalar sistemasida qobiq qatlamlari nuqtalarining harakat tenglamalari, silindrik uch o'lchovli jism sifatida, hajmiy kuchlar bo'lmaganda, bo'ylama - $\varphi^{(m)}$ va ko'ndalang - $\vec{\phi}_m$ to'lqinlarning potentsiallari bo'yicha to'lqin tenglamalariga qisqartiriladi

$$R_m(\Delta \varphi^{(m)}) = \rho_m \ddot{\phi}_m; \quad R_{\mu m}(\Delta \vec{\phi}_m) = \rho_m \ddot{\vec{\phi}}_m; \quad R_m = R_{\lambda m} + 2R_{\mu m}, \quad (3)$$

bu erda ρ_m - qatlam materiallarining zichligi; Δ - uch o'lchovli Laplas operatori

$$\Delta = \frac{\partial^2}{\partial r^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} + \frac{1}{r^2} \frac{\partial^2}{\partial \theta^2} + \frac{\partial^2}{\partial z^2}. \quad (4)$$

Bunda qatlamlar nuqtalaridagi ko'chish vektori va kuchlanish tenzorining barcha komponentlari potensial funksiyalar orqali ifodalanadi. Xuddi shunday, o'zaro ta'sir qiluvchi qovushoq suyuqlikning harakat tenglamalari G va χ_1, χ_2 potensial funksiyalariga nisbatan qabul qilinadi.

$$\frac{\partial}{\partial t} \left[\left(1 + \frac{4\nu'}{3a_0^2} \right) \Delta - \frac{1}{a_0^2} \frac{\partial^2}{\partial t^2} \right] G = 0, \quad \left(\frac{\partial}{\partial t} - \nu' \Delta \right) \zeta_1 = 0, \quad \left(\frac{\partial}{\partial t} - \nu' \Delta \right) \zeta_2 = 0, \quad (5)$$

bu yerda a_0 - tinch holatdagi suyuqlikda tovush tezligi; ν' - kinematik qovushoqlik koeffitsiyenti. Bu yerda ham suyuqlik zarrachalarining kuchlanish tenzori va tezlik vektorining barcha komponentlari G va ζ_1, ζ_2 potensial funksiyalar orqali ifodalanadi.

Uchinchi paragrafda silindrik uch qatlamli qobiqning nostatsionar tebranishlari va uning qovushoq siqiluvchan suyuqlik bilan o'zaro ta'siri masalalari keltirilgan. Chegara shartlariga ko'ra, suyuqlikni o'z ichiga olgan silindrik qatlamning nostatsionar tebranishiga oid uch xil masala bo'lishi mumkin. Bularga qatlamning buralma, bo'ylama-radial va ko'ndalang tebranishlari kiradi. Shuning uchun, ushbu paragraf doirasida "silindrik qatlam - suyuqlik" gidroelastik sistemaning ko'ndalang, bo'ylama-radial va buralma tebranishlari bo'yicha masalalar ishlab chiqilgan.

$t < 0$ da qobiq tinch holatda deb faraz qilamiz, $t = 0$ paytda esa uning chegara sirtlariga u yoki bu turdagi tebranishlarni keltirib chiqaradigan kuchlanishlar ta'sir qiladi. Uch qatlamli qobiqning burilish tebranishlari uchun chegara shartlari quyidagi ko'rinishga ega.

$$\begin{cases} \tau_{r\theta}^{(1)}(a, z, t) = F_{r\theta}^{(1)}(z, t), & \text{npu } r = a, \\ \tau_{r\theta}^{(2)}(b, z, t) = F_{r\theta}^{(2)}(z, t), & \text{npu } r = b. \end{cases} \quad (6)$$

bu yerda $F_{r\theta}^{(i)}(z, t)$, ($i = 1, 2$) tashqi ta'sirlarning funksiyalari. Bundan tashqari, qatlamlar orasidagi chegara sirtlarida kontakt shartlariga ko'ra, ko'chishlar va kuchlanishlarning tengligi shartlari bajarilishi kerak, ya'ni.

$$\begin{cases} v_0(r_1, z, t) = v_1(r_1, z, t), \quad \tau_{r\theta}^{(0)}(r_1, z, t) = \tau_{r\theta}^{(1)}(r_1, z, t), & \text{npu } r = r_1, \\ v_0(r_2, z, t) = v_2(r_2, z, t), \quad \tau_{r\theta}^{(0)}(r_2, z, t) = \tau_{r\theta}^{(2)}(r_2, z, t), & \text{npu } r = r_2. \end{cases} \quad (7)$$

Masalaning boshlang'ich shartlari nolga teng deb hisoblanadi.

Qobiqning buralma tebranishlari simmetrik masaladir. Bu holda doiraviy silindrik qovushoq-elastik uch qatlamli qobiqning harakat tenglamalari quyidagicha bo'ladi.

$$R_{\mu m}(\Delta_0 \psi_m) = p_m \frac{\partial^2 \psi_m}{\partial t^2}; \quad \Delta_0 = \frac{\partial^2}{\partial z^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} + \frac{\partial^2}{\partial r^2}, \quad m = \begin{cases} 1, & \text{если } a \leq r \leq r_1, \\ 0, & \text{если } r_1 \leq r \leq r_2, \\ 2, & \text{если } r_2 \leq r \leq b. \end{cases} \quad (8)$$

Shunday qilib, uch qatlamli qobiqning buralma tebranishlari masalasi (8) integral tenglamalarni (6) chegaraviy, (7) kontakt, shuningdek, $t = 0$ da quyidagi boshlang'ich shartlar bilan yechiladi:

$$\psi_m = \frac{\partial \psi_m}{\partial t} = 0, \quad (m = 0, 1, 2).$$

Bo'ylama-radial tebranishlar uchun chegaraviy shartlar

$$\begin{cases} \sigma_{rr}^{(1)}(a, z, t) = F_r^{(1)}(z, t), & \tau_{rz}^{(1)}(a, z, t) = F_{rz}^{(1)}(z, t), & \text{npu } r = a, \\ \sigma_{rr}^{(2)}(b, z, t) = F_r^{(2)}(z, t), & \tau_{rz}^{(2)}(b, z, t) = F_{rz}^{(2)}(z, t), & \text{npu } r = b. \end{cases} \quad (9)$$

ko'rinishga ega va kontakt sirtlarda quyidagi shartlar o'rinli

$$\begin{cases} w_0(r_1, z, t) = w_1(r_1, z, t), u_0(r_1, z, t) = u_1(r_1, z, t), \tau_{rz}^{(0)}(r_1, z, t) = \tau_{rz}^{(1)}(r_1, z, t), & r = r_1, \\ w_0(r_2, z, t) = w_2(r_2, z, t), u_0(r_2, z, t) = u_2(r_2, z, t), \tau_{rz}^{(0)}(r_2, z, t) = \tau_{rz}^{(2)}(r_2, z, t), & r = r_2. \end{cases} \quad (10)$$

Masalaning boshlang'ich shartlari, yuqoridagi kabi, nolga teng deb hisoblanadi. Bunday holda, harakat tenglamalari quyidagicha bo'ladi.

$$\left\{ R_m(\Delta_0 \varphi_m) = \rho_m \frac{\partial^2 \varphi_m}{\partial t^2}, R_{\mu m}(\Delta_0 \chi_m) = \rho_m \frac{\partial^2 \chi_m}{\partial t^2}, R_m = R_{\lambda m} + 2R_{\mu m}, (m = 0, 1, 2), a \leq r \leq b. \right. \quad (11)$$

Qolgan chegaraviy va kontakt shartlar dissertatsiyada ko'rib chiqilgan masalalar uchun xuddi shunday qo'yiladi.

Bobning to'rtinchi paragrafi qovushoq-elastik materialdan tayyorlangan uch qatlamli silindrik qobiqning nostatsionar tebranishlari masalalarini hal qilishning umumiy yechish metodini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Bu usul keyingi bobda uch qatlamli doiraviy silindrik qovushoq-elastik qobiqning buralma tebranishlari uchun batafsil yoritilgan. U uch qatlamli qobiqning ichki va tashqi yuzalarida kuchlanishlar ko'rsatilgan chegara shartlarini taqribiy qanoatlantirishi uchun chiziqli qovushoqlik nazariyasining uch o'lchovli masalasini integral o'zgartirishlarda umumiy aniq yechimlardan foydalanishga asoslangan. Olingan umumiy yechimlar orqali qobiq nuqtalarining ko'chish vektori va kuchlanish tenzorining barcha komponentlari ifodalanadi. Ushbu usul, uning soddalashtirilgan versiyasida, uch qatlamli silindrik qovushoq-elastik qobiqning buralma tebranishlarining matematik modelini ishlab chiqish uchun, doiraviy silindrik qovushoq-elastik buralma tebranishlari nazariyasini ishlab chiqishga bag'ishlangan ikkinchi bob doirasida uch qatlamli qobiq keltirilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida doiraviy silindrik qovushoq-elastik uch qatlamli qobiqning buralma tebranishlari tenglamalari olingan. Doiraviy silindrik qovushoq-elastik qobiqning nostatsionar buralma tebranishlari uchun umumiy va ulardan taqribiy tenglamalarni chiqarishda yuqorida tuzilgan (6)-(8) boshlang'ich-chegaraviy masalani yechish kerak bo'ladi. Shu maqsadda tashqi ta'sir funksiyalari, chegara shartida (6) quyidagi shaklida ifodalanadigan funksiyalar sinfida ko'rib chiqiladi.

$$F_{r\theta}^{(i)}(z, t) = \int_0^\infty \frac{\sin kz}{-\cos kz} \left. \right\} dk \int_{(i)} f_{r\theta}^{(i)}(k, p) e^{pt} dp, \quad (i = 1, 2). \quad (12)$$

Bu yerda (l) ochiq kontur p kompleks sohada e'tiborga olmaslik darajadagi. $(-i\omega_0, i\omega_0)$ kichik o'q. Bundan tashqari, $F_{r\theta}^{(i)}(z, t)$ funksiyalar $f_{r\theta}^{(i)}(z, t)$, $(i = 1, 2)$ funksiyalari $\{0 < k < k_0, \text{Im}|p| < \omega_0\}$ sohadan tashqarida ahamiyatsiz bo'lgan deb

faraz qilinadi. (12) ga o'xshab, ψ_m potensial funksiyalarini quyidagicha ifodalaymiz.

$$\psi_m = \int_0^{\infty} \frac{\sin kz}{-\cos kz} \left. \right\} dk \int_{(l)} \tilde{\psi}_m e^{pt} dp, \quad (13)$$

Bundan tashqari, (13) tasvirlar, agar integral ostidagi funksiyalar yuqoridagi shartlar qanoatlantirsa, ψ_m funksiyalarni kerakli vaqtda ham fazoviy koordinatada, ham vaqt bo'yicha farqlash imkonini beradi.

So'ngra, (8) to'lqin tenglamalariga (13) almashtirishlarni qo'yib quyidagiga ega bo'lamiz

$$\left(\frac{d^2}{dr^2} + \frac{1}{r} \frac{d}{dr} - \beta_m^2 \right) \tilde{\psi}_m = 0, \quad (m = 0, 1, 2), \quad (14)$$

bu yerda

$$\beta_m^2 = k^2 + \rho_m p^2 \tilde{R}_{\mu m}^{-1}; \quad \tilde{R}_{\mu m} = \mu_m [1 - \tilde{K}_{\mu m}(p)].$$

(14) tenglamalarning umumiy yechimlari quyidagi ko'rinishga ega

$$\tilde{\psi}_m(r) = B_m^{(1)} I_0(\beta_m r) + B_m^{(2)} K_0(\beta_m r); \quad (m = 0, 1, 2), \quad (15)$$

bu yerda $I_0(r)$, $K_0(r)$ - modifitsirlangan Bessel funksiyalari; $B_m^{(1)}$, $B_m^{(2)}$ - chegaraviy shartlardan aniqlanadigan integral o'zgarmlari; ρ_m - qatlam materiallarining zichligi; μ_m -Lame koeffitsiyenti.

(12) bilan bir qatorda $\tau_{r\theta}$, kuchlanishlarni ifodalab, ularni (12) bilan birgalikda potensial funksiyalar (13) tasvirlari yordamida (6) chegara shartlariga almashtirib, quyidagiga ega bo'lamiz:

